

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY KASHTA TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

“DIZAYN (TURLARI BO‘YICHA)” YO‘NALISHI

**“DIZAYN TURLARINI O‘QITISH METODIKASI”
MODULI BO‘YICHA**

O‘ Q U V – U S L U B I Y M A J M U A

Toshkent 2023

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan
o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Tuzuvchi: O.Kasimov - san.f.n. dotsent.

Taqrizchilar: F.Ataxanova – san.f.n. dotsent.
M. Sobirov – s.f.f.d. dotsent.

*O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan
tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagi 2- sonli bayonnoma).*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	3
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.	12
III. NAZARIY MATERIALLAR	20
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI..... Ошибка! Закладка не определена.	
V. KEYSLAR BANKI.....	26
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI.....	53
VII. GLOSSARIY	55
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta‘lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani

yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'kuv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta‘minlash;

“Dizayn (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Amaliy san’atda kompozitsion yechim masalalari” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- dizaynda badiiy obraz yaratishning zamonaviy konsepsiyalari, usullar, an’analar, muammolarini;
- I.D.Preysler, A.G.Sapojnikov, G.A. va boshqalar faoliyatidagi ilg‘or qarashlarni;
- dizayn obyektlarini badiiy his qilish psixologiyasi o‘qitish metodlarining rivojlantirishdagi yetakchi xorij olimlarning xizmatlarini;
- dizayn obyektlarini badiiy his qilish psixologiyasini o‘qitish uslublarini;
- turli tashkilotlar brendini yaratish usullarini;
- dizaynda loyihalashga doir eng qadimgi va o‘rta asr boshlaridagi (Misr, Yunon, Qadimgi Rim) ma’lumotlarni;
- dizayn-loyihalashda an’analar va innovatsiyalar muammosini;
- dizayndagi trendizm tushunchasini;
- reklama dizaynida tarixiy tajribalarni;
- reklama dizaynida rangning insonga ruhiy ta’sirini;
- dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalarni;
- O‘zbekistonda XX asrda reklama dizayni fanining kirib kelish bosqichlarini;
- Mustaqillik davrida O‘zbekistonda va jahonda reklama dizayni fanini rivojlanishini *bilishi* kerak.
- turli konsepsiyalar asosida dizayn-loyihalashdagi innovatsion jarayonlarni tushuntirish;
- dizayndagi kolloboratsiyalar- innovatsion loyihalash metodidan foydalanish;
- dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllarini qo‘llash;
- yangi zamonaviy texnologiyalarni talabalarga yetkazish;

- modernizatsiya jarayonlari va ularning ijobiy natijalarini pedagogik faoliyatga tadbiiq etis;
- dizayn asarini badiiy idrok etishda rang, assotsiatsiyalar, instinktlarning ta'sirini o'rganish;
- dizaynga yondashuvning zamonaviy konsepsiyalarini tahlil etish;
- emotsional tarzda turlicha ta'sir etuvchi dizayn obyektlari loyihalarining konsepsiyasini ishlab chiqish;
- reklama dizaynida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish;
- reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublaridan samarali foydalanish *ko'nikmalariga* ega bo'lishi lozim.
- an'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlil etish;
- dizaynda loyihalashning o'qitish metodikasini rivojlantirishda Uyg'onish davri rassomlarining ishlarini tahlil qilish;
- XVIII-XIX asrlarda G'arbiy Yevropada rasm chizish dizaynini o'rgatish metodikasiga bo'lgan turli qarashlarni o'rganish;
- hozirgi zamon ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari innovatsion tajribalarini ta'lim jarayoniga qo'llash;
- real dizayn obyektlarining emotsional ta'sirini o'rganish, tahlil qilish.
- yangi kompozitsion g'oyalar ustida ishlash, ijodiy tafakkur yuritish va badiiy talqin etish;
- P.P.Chistyakov, D.N.Kardovskiylarning pedagogik qarashlarini baholash;
- Reklama dizaynida xorijiy usullarni qo'llash *malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalar, turli konsepsiyalar asosida innovatsion jarayonlarni tashkillashtirish;
- ekologik yondashuvning innovatsion shakllarini joriy etish;
- dizayn obyektlarining emotsional ta'sirini o'rganish;
- dizayn obyektlarini badiiy his qilish psixologiyasini o'qitish metodikasi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotda qo'llash;
- reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublarinidan samarali foydalanish;
- turli tashkilotlar brendini yaratish usullarini tadbiiq etish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Dizayn loyihalashda innovatsion yondashuvlar” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta’limning muhim ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejasidagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Dizayn loyihalashda innovatsion yondashuvlar” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy ta’lim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Ta’lim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta’limning ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Dizaynda uslub va turlar, zamonaviy dizayn strategiyasi	2	2		
2.	Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil	4	2	2	
3.	Dizayn metodologiyasi	4	2	2	
4.	Milliy va zamonaviy uslublar. Uyg‘unlashuv jarayoni	4		4	
5.	Liboslarda badiiy timsol va uslub	4		4	
6.	Inson qomatini grafik usulda tasvirlash	4		4	
7.	Dizayn turlarining kompozitsiyasini tuzishdagi umumiy qoidalari	4		2	2
8.	For eskizlar bajarish usullari	4			4
	Jami:	30	6	18	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Dizaynda uslub va turlar, zamonaviy dizayn strategiyasi

(2 soat)

Dizayndagi trendizm tushunchasi. Dizayndagi kolloboratsiyalar – innovatsion loyihalash metodi sifatida. Dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllari. An'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlili. Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublari. Turli tashkilotlar brendini yaratish usullari. Reklama dizaynida tarixiy tajriba. Reklama dizaynida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish. Reklama dizaynida rangning insonga ruhiy ta'siri. Reklama dizaynida xorijiy usullarni qo'llash. Libosni modellash.

2-mavzu. Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil

(2 soat)

Badiiy ta'lim jarayonida Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va metodik qo'llanmalar mazmuni, fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodlari, badiiy ta'lim jarayonida san'at asarlarini badiiy tahlil qilish asoslarini, badiiy ta'lim jarayonida san'at asarlarini perspektiv tahlil qilish asoslarini, san'at asarlarini, badiiy tahlil qilishda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni, badiiy tahlil metodikasi yutuqlari, san'atga qo'llanilgan ishi bo'yicha tadqiqotlari

3-mavzu. Dizayn metodologiyasi

(2 soat)

Dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalar, turli konsepsiyalar asosida dizayn-loyihalashdagi innovatsion jarayonlarni tushuntirish. Yangi zamonaviy texnologiyalarni talabalarga yetkazish. Dizayn-loyihalashda an'analar va innovatsiyalar muammosi. Dizayndagi trendizm tushunchasi. Dizayndagi kolloboratsiyalar – innovatsion loyihalash metodi sifatida. Dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllari. An'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlili. Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish uslublari. Turli tashkilotlar brendini yaratish usullari

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil

(2 soat)

Dizayn loyihalashda ashyolar va texnologiyalar, turli konsepsiyalar asosida dizayn-loyihalashdagi innovatsion jarayonlarni tushuntirish. Yangi zamonaviy texnologiyalarni talabalarga yetkazish. Dizayn-loyihalashda an'analar va innovatsiyalar muammosi. Dizayndagi trendizm tushunchasi. Dizayndagi kolleboratsiyalar – innovatsion loyihalash metodi sifatida. Dizaynga ekologik yondashuvning innovatsion shakllari. An'anaviy amaliy san'at, me'morchilik va hunarmandchilikdagi innovatsiyalarni tahlili.

2-mavzu. Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari

(2 soat)

Dizayn sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari. Reklama dizaynida sifatli loyihalarni yaratish usullari. Turli tashkilotlar brendini yaratish usullari. Reklama dizaynida tarixiy tajriba. Reklama dizaynida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish. Reklama dizaynida rangning insonga ruhiy ta'siri. Reklama dizaynida xorijiy usullarni qo'llash. Libosni modellashtirish. Tarixiy va zamonaviy libos uslublaridan foydalanib yangi tur va uslublarni yaratish, o'quvchilarda ijodkorlik va yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish. Kolleksiyalash. Tasvirlashning ixtiyoriy usulini (texnikasini) qo'llab sport uslubidagi libos kompozitsiyani yaratish. Etno uslubidagi libos kompozitsiyani yaratish.

3-mavzu. Dizayn metodologiyasi.

(2 soat)

Chizmasvir va rangtasvirni didaktik prinsiplari. Chizmasvir va rangtasvirni o'qitishning asosiy qonun-qoidalari. Rangtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, ko'z, ong va sezgi organlarini shakllantirish. Realistik rasm chizish san'ati, borliqni haqqoniy obrazlarda tasvirlash mahoratini rivojlantirish. ijodiy yondashishni tarbiyalash. Chizmasvir va rangtasvir fani uchun ashyolar. Tekislikni joylashtirish. Yorug'-soyani topish, shtrixlash. Issiq-sovuq ranglardan foydalanib natyurmort ishlash.

4-mavzu. Dizayn metodologiyasi.

(2 soat)

Hozirga qadar dizayn va uning maqsadi, imkoniyatlari haqida turli bahslar yuritilgan. Chunonchi italyan dizayneri D.Ponti dizaynning maqsadi go'zal shakllar, narsalar dunyosini yaratishdan iborat deb hisoblaydi. Dizaynning boshqa

bir nazariyotchisi T.Maldonado o'zgacha fikrni qo'llab quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, iste'mol predmeti badiiy asar vazifasini bajara olmaydi.

Hozirda dizayn bozor extiyojlari va talablariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib qolmoqda. Tarixiy o'zgarishlar, taraqqiyot jarayonida o'z-o'zidan buyumlarning qiyofasi va ularning tuzilishi ham o'zgarib bordi. Holubki, ana shu buyum va ashyolarni tayyorlovchilar, hunarmandlar xamisha an'analarga bo'ysinar edilar. Binobarin, mahorat va milliy an'ana avloddan-avlodga o'tib, takomil topib keladi. Demak, buyumlar va ashyolarni tayyorlash usuli bilan birga, ularning milliy shakllari ham meros bo'lib o'tadi.

5-mavzu. Liboslarda badiiy timsol va uslub

(4 soat)

Inson ongi shakllanib kamolga yetgan sari unda estyetika xaqidagi o'zligini tasavvuri mukammallashib borib o'zining o'zligini omma ichidan ajratib shaxsiy timsolni topishga intiladi. Libos o'zida psixologik obraz tavsifini mujassam etish bilan birga o'zida ma'lum bir davrga oid idyeal, jamiyatning moddiy va tyexnik qatlami xaqida ma'lumot beradi. Timsol o'z navbatida insonning uslubini belgilab beradi. Insonning o'z uslubiga xos yaratilgan libos uning ichki sifatlarini, ma'lum bir insonlar jamiyatiga a'zo ekanligini bildiradi. San'atda uslub – tarix bilan xamnafas nisbatan turqun, san'atning qoyaviy tarkibi bilan shartli ravishda boqliq, tarixiy poyoniga ega badiiy yechimlar usuli va timsolli tasavvurlarining umumiyligidir.

6-mavzu. Inson qomatini grafik usulda tasvirlash

(4 soat)

Inson qomatini tasvirlashda biz qalam tasvir rang tasvir kursidan xabardor bo'lishimiz kerak. Sodda qomatni tasvirlaiddan boshlab, to ularni inson anatomiyasiga qos chizish albatta, murakkab, ko'p izlanish va ustida ishlash talab etadigan jarayondir. Inson fantaziyasidagi tasvirni yaqqol va aniq, o'zi istaganday tushirishi uchun, u tinmay qomat tasvirlari bilan shuquullanib turishi darkordir. O'quvchilar xar kuni kamida 10–15 minut albatta tasvirlar ishlashga vaqt ajratish joiz, aks qolda amaliyotsiz, xech qanday natijaga erishib bo'lmaydi. Xar bir tasvirda rassom o'z ijodiga ilqom ola bilishi kerak

7-mavzu Dizayn turlarining kompozitsiyasini tuzishdagi umumiy qoidalari

(4 soat)

Insondagi did va go'zallikka bo'lgan qissiyoti, uning butun umri davomida myexnatdagi, turmushdagi, omma bilan oloqadagi va dam olish paytidagi faoliyati

jarayonida shakllanib boradi. Aynan mehnat tufayli, inson go'zallik yaratuvchisi bo'lib qolgan. Inson o'zligining estyetik tarbiyasini shakllantirishda ilm va fan vositalarining juda boy xazinasini mavjuddir. Shulardan eng muximi badiiy madaniyatning asosiy tarkibi bo'lmish – san'atdir. San'at inson xayotida estyetikani uyqotadi va estyetik tushunchalarni rivojlantiradi, tabiatni syevishni o'rgatadi. U estyetik didning muqim faktoridir. Estyetik did xayotiylikka inson nuqtai nazaridan go'zallik, qunuklik, kulguliylik, motamlilik kabi tasavvurlaridan kelib chiqib, baxo beradi. Estyetik didning zamonaviyligi texnika, ilm fan rivojlanishi, ijtimoiy turmush sharoit tarzi bilan qattiq boqliq.

8-mavzu. For eskizlar bajarish usullari

(4 soay)

Vositasiga qarab eskizlar turli qil bo'lishi mumkin. Rassomga yaqin bo'lgan turli vositalar yordamida tasvirlangan xomaki eskizlar mavjud. Bunday eskizlar faqatgina muallifga tushunarli bo'lgan «xatda» chizilgan bo'lib, ular **for-eskizlar** (xomaki eskizlar) deb ataladi. For-eskizlar shakl xosil qilish jarayonida yaqqol aniqlanadi, izlanadi. For-eskizdan eskizga o'tish jarayoni tezda sodir bo'lmasligi xam mumkin; qoyalarni izlash oqibatida yanada ko'plab xomaki tasvirlar qilinishi xam mumkindir.

Byerilgan topshiriqqa muvofiq eskizlarda loyiqaning turli kerakli talablari o'z aksini topgan bo'lishi zarur. Masalan, agar eskizda tikuvchilik buyumini bajarish masalasi qo'yilgan bo'lsa, rassomning diqqati yaratilayotgan libosning chiziqli-konstruktiv tomoniga qaratiladi, ya'ni u Model siluetini, sung uning ichki konstruktiv syetkasini ishlab chiqadi. Ushbu eskiz ishchi deb qisoblanib, Model konstruksiyasi va uning detallari unda aniq aks etadi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming - aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

“SWOT-taхлил” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.


S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• тўсиқлар

Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi.	Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson
W	Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar.	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijodkorlardandir
O	Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki)	Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar.
T	To‘siqlar (tashqi)	Rassomlarga erkinlik bo‘lmasa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar.

“Baliq skeleti”

Naturmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 4



Мисол: “Рассом ижодкорлар” мавзусидаги матн. Биламиз. Билишни истаймиз? Билиб олдик. (БББ)

Bilamiz	Bilishni istaymiz	Bilib oldik
1.Rassom yangi g'oyada asar yaratadigan inson.	1.Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi?	Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo'llay oladigan insonni rassom deymiz.
2.Rassomlar tasviriy vositalardan, chiziqlar shakllar, vositalarni o'z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma'naviy estetik tarbiyalovchi	2.Dunyodagi g'oyaviy kompozitsilarni tasvirla oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritsa bo'ladi.	R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar uchun amaliy metodik o'quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanilmoqda.
3.Rassomlar asarida insonnlarni ma'naviy-ma'rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir.	3.Rassom bo'lish uchun nima qilish kerak?	O'ral Tansiqboyev manzaralarini butun o'zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar.
4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson	4.Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi?	Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur.
5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan rassomlar.	5.Kompyuterda ijodiy asar yaratsa bo'ladimi ?	Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir.
6.O'zbekistonlik rassomlar	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz?	O'zbekistonda taniqli metodik qo'llanmalar, uslubiy qo'llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: B.Boymetov, M.Nabiyev, O.Egamov, R.Xudayberganov, R.Djalilova

Интерьерда натюрмортни акс этириш




xonani ichki ko'rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san'at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko'rinishlarda fon vazifasini o'taydi.

Interyerda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Interyer - ichki me'moriy muxit xolati orqali xonadon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot

holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Interyerda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Interyer, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.



«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («catse» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- “Tasviriy san’at” bo‘yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo‘yicha o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:


Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar professor - o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.



“Brifing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo‘yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press - konferensiya.

O‘tkazish bosqichlari:



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bir asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

Faoliyat turi	Ish shakli	
	Individual	Guruhiy
Ta'limiy faoliyat	Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq.	Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq.
Pedagogik faoliyat	O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi	Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq.

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o'zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Dizaynda uslub va turlar, zamonaviy dizayn strategiyasi (2 soat)

XX asrda ildiz otgan ikki dizaynning ikkita uslubi

"Zamonaviy" va "zamonaviy" dizayn shartlari bir xil narsani anglatishini o'ylashingiz mumkin. Axir zamonaviy dizayni zamonaviy emasmi? Agar siz bu ikki so'zning lug'at ta'rifi bilan boradigan bo'lsangiz, albatta, bu haqiqat bo'lishi mumkin. Dizayn va san'atda, zamonaviy va zamonaviy, ikki xil uslubga aylanadi.

Bu ikki bezak uslubi ba'zi umumiy xususiyatlarga ega, ammo farqlar mavjud.

Vaqt, ularni farqlashda eng katta omildir. Zamonaviy dizayni 1900-yillarning o'rtalaridan boshlab mustahkam tarzda qaerda joylashgan bo'lsa, zamonaviy dizayn bu erda va hozirgi tendensiyalarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy dizaynning ildizlari

Zamonaviy uslub asosan 1800-yillarning oxirlarida boshlangan modernizm harakatining dizayni va dekorasidir. Nemis Bauhaus dizayn maktablari va Skandinaviya dizayni soddaligi va funksiyasiga e'tibor qaratgan holda, zamonaviy dekor uslubi aslida juda eski. Umuman olganda, zamonaviy dekor XX asrning o'rtalaridan boshlab boshlangan.

Zamonaviy uslub oxir-oqibatda o'rta asrdagi zamonaviy (1950 va 60-yillar) va postmodernizm (1970 va 80-yillar) ga aylandi. O'rta asrning zamonaviy ko'rinishi strategik tarzda qo'shilgan yorug 'rangli chayqalishlar bilan zamonaviy dizaynga o'xshab ketganda, postmodernizm haqiqatda yo'q.

Postmodernizm jasur, odatdagi barcha qoidalarni buzadi va bu borada ma'lum bir jirkanch va jirkanchdir.

Bu zamonaviy dizayndagi mavjud bo'lgan amaliy xususiyatlarga mutlaqo zid bo'lgan funktsiyadan farqli o'laroq shakldadir.

Zamonaviy dizaynning ildizlari

1970-yillarda zamonaviy uslub sifatida qaraladigan narsa postmodernizmning mashhurligini oshirishga o'xshaydi. Dastlab, u o'zidan tanila boshlanganidan oldin uslublarning aralashmasi edi.

Zamonaviy dizayn zamonaviyizm va postmodernizmdan olingan elementlarni o'zlashtirdi. Bundan tashqari, san'at deko , dekonstruktivizm, futurizm va boshqa ko'plab uslublardan fikrlar to'plandi.

Va "zamonaviy" uslub har doim ham o'zgarib turadi. Har o'n yil o'tgach, kunning bezaklari doimo zamonaviy hisoblanadi. Zamonaviy uslubda bo'lgani

kabi, muayyan vaqtga bog'liq emas. Buning o'rniga, bugungi kunda sodir bo'layotgan voqealarni aks ettiradigan doimo rivojlanib boradigan uslub.

Zamonaviy va boshqalar zamonaviy

Bu ikki dizayn uslubi orasidagi farq juda oz. Zamonaviy kosmik stil uslubiga rioya qilishni xohlaydi, ayni paytda zamonaviy interyerda ko'plab farqlar mavjud.

Haqiqiy shaklda zamonaviy, kamdan-kam hollarda sovuq yoki sovuq deb qaraladi, ba'zi zamonaviy interyerlar, shu jumladan minimalist yo'nalishlarga amal qilganlar, jasur shaffoflikni nishonlaydilar.

Zamonaviy dekor bezaklari funktsiyaga ega bo'lib, zamonaviy asarlarning shakllari o'ziga ko'proq moslashishi mumkin.

Zamonaviy dizaynerlikning ranglar palitrasi naturals yoki neytrallarga to'g'ri keladi, ular issiq, o'ziga jalb qiladi. Zamonaviy ko'pincha qora va oq bulutlar bilan juda ziddiyatga ega. Garchi bu rang sharoiti bo'yicha birdan ikkinchisiga sirg'alib chiqadigan muammo yo'q.

Zamonaviy dizayner kuchli chiziqlarni yoqlaydi, zamonaviy uslublar egri chiziladi.

Zamonaviy dizaynerlik uslubi abadiy tendentsiyalarga moslashtirilganligi sababli, zamonaviy dizaynda topilmaydigan ko'plab elementlarni to'playdi. Bunga keng derazalar kabi narsalar kiradi va tabiiy makonni ichki makonga aylantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy va zamonaviy uslublar geometrik elementlardan bahramand bo'lishadi, lekin ular bu haqda turli yo'llar bilan borishga moyil. Zamonaviy xonada tavandan osilgan yorqin oltinning geometrik nurli fikstürü bo'lishi mumkin. Holbuki, bugungi kunda u kattaroq haykaltaroshlik xususiyatlariga ega bo'ladi, masalan, yorqin rangli shiftga qarama-qarshi chiziqlarni namoyish qiladi.

O'xshashliklar

Har ikki uslubda ham o'xshash xususiyatlar mavjud. Bu chalkashliklar ko'pincha ularni ajratib olishga urinishdan kelib chiqadi.

Har ikki uslubda ham oddiy, chiroyli joylar silliq, toza chiziqlar va badiiy qobiliyatga ega. Bu juda yoqimli xonada qulay va xotirjam his qilish imkonini beradi.

Qanday uslubda bezakli dizaynlar yoki og'ir unsurlarni afzal ko'rasiz. Shu bilan birga, zamonaviy bo'shliqlar ushbu qoidalarni tez-tez o'zgartirishi mumkin.

Har ikki uslubda ham divanlar, stullar va osmonliklar oyoqlarini ochishgan. Har biri o'z ta'sirini o'tkazuvchi metallar va shisha kabi shaffof sirtlarni tortishga moyil. Bundan tashqari, har ikki uslubda ham yog'och yog'ochlarni, me'moriy chuqurlikdan, metall asosli xom yog'och uchli jadvallarga qadar topishingiz mumkin.

2-mavzu. Dizayn turlarida kompozitsiya yaratish, badiiy tahlil

(2 soat)

Kompozitsiya inson ijodining barcha turlarida, hususan rassomchilik, grafika, haykaltaroshlik, adabiyot yo'nalishi, kino, teatr, musiqa, me'morchilik, dizayn va dizaynerlik san'atiga hos sanoat buyumi yaratishda keng qo'llaniladi. Ijodkor yaratgan asarining muvaffaqiyati uning kompozitsiyasi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham o'z asarlarida kompozitsiya jihatidan yaxshi natijalarga erishgan ijodkorni, hoh u rassom, hoh me'mor bo'lsin, o'z sohasining kompozitori deb atashgan. Ushbu fan ijodiy yo'nalishdagi barcha mutaxassislar uchun suv va havodek zarur.

Shu joyda kompozitsiyani o'ziga to'xtalib o'tsak. Kompozitsiya so'zi lotincha "komponere" so'zidan olingan bo'lib, "tuzmoq", "joylashtirmoq", "to'qimoq" degan ma'noni anglatib, turli hil ramziy qism ifodalarini bir butun yaxlitlikka va biron bir g'oyani madx etish ma'nosini bildiradi.

Kompozitsiya maqsadlar rang-barangligi, ko'p qirraliligi, shahsiy xis-tuyg'ularning tug'yonini anglatganligi uchun ham yagona yo'riqqa bo'y-sunmaydi va shu tomoni bilan boshqa fanlar uslubiyatidan mutloq farq qiladi. Kompozitsiya yaratish jarayoni kishi ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lib, shahsiy ish usuli, musavvir hissiyoti, tafakkuri olamiga kirishi dastlab bir qadar qiyin bo'lsada, bu boradagi tajribalarga suyangan holda kompozitsiya sirlarini ochish imkonini beradigan muammolarni birma-bir ko'rib chiqish, tasvirlangan har qanday murakkab munosabatlarga aql ko'zi bilan qarab yondashish, ta'surotlarni va suratda aks etgan timsollarga bog'liq fikrlarni mustaxkamlab, ularni tartibga solishga, sirli qirralarini ochishga yordam beradi.

Kompozitsiyani ta'riflashda yani bir ajoyib ibora bor. Bu ham bo'lsa, umumiylik, yaxlitlik, asosni tanlab olish, markazni aniqlashdir. Shuning o'zi ham kompozitsiya azaldan san'at asarining asosiy siri ekanini ko'rsatib beradi. Kompozitsiya tuzilishiga ko'ra obyektiv qonunlarga asoslangandir. Badiiy asar kompozitsiyasi o'z ichiga asar mazmunini, ijodiy jarayon mashaqqatini qamrab oladi, badiiy obrazni yuzaga chiqaradi va uni boshqa vositalar yordamida yaqqol ko'rsatib beradi. Bu obraz orqali asarning yaxlit ko'rinishiga obyektiv qonunlar asosida estetik va badiiy baho beradi[1]. Shuning uchun ham bu jarayon, ya'ni kompozitsiya tuzilishi yangi shakllar majmuasi bo'lib, bizga ko'plab tafakkur qirralarini havola etgan holda namoyon bo'laveradi. Ijodkor uslubi, uning ichki dunyosi, shaxsiy kechinmalari, estetik talab, badiiy ifoda, milliylik zamirida kompozitsiya orqali o'z talqinini topadi, hamda fikrlarning isboti sifatida namoyon bo'ladi va uning baholanishi bilan yakun topadi.

San'atning har qanday sohasida kompozitsion tuzilishsiz, uning barcha qism va komponentlarini uyg'unlashtirmasdan turib, badiiy asar yaratish mumkin bo'lmaydi. Kompozitsiya forma va mazmunni yaxlitlikda ifodalashning muhim vositasidir. Kompozitsiya deganda biz ma'lum bir ifodaga ega tuzilmasini yaxlitlikda, maqsadli qurish, qaysiki qismlari joylashuvi va o'zaro mutanosiblikda, bog'liqlikda bo'lishini va umumlashtirilgan fikr va mazmunga ega ekanligini tushunamiz. Shuningdek tugallangan badiiy asarni, masalan, rangtasvir asarini kartina deb, musiqa asari, yaxlit g'oya atrofida o'zaro bog'langan balet spektaklining nomerlarini, metal eritmalari tarkibini, duxilar va hokazolarni kompozitsiya deyishadi. Shuningdek badiiy asarni tuzish qonuniyatlarini o'qitadigan fanni ham kompozitsiya fani deyiladi. Jismlarning tartibsiz, uyib tashlangan holatdagi ko'rinishini kompozitsiya deb bo'lmaydi. Shuningdek mazmunida bir xillik, bir ma'noli, elementarlikning mavjudligini ham kompozitsiya deb bo'lmaydi[2]. Kompozitsiya har qanday yaxlitlikdagi tuzilmada (struktura), yohud sanat asari bo'lsin, ilmiy ish, information habar yoki tabiat yaratgan organizmda ham mavjud bo'lishi kerak.

Kompozitsion markazni tashkil qilishda tekislikni vizual idrok qilish qonunlarini inobatga olish kerak. Odatda u tekislikning faol, markaziy qismida joylashadi. Geometrik markazga nisbatan surish, ko'pincha asarda badii o'braz va mavzuni ochishda katta ichki keskinlik va plastik ifodaviylikni beradi. Tekislik chetlari, biz buni istaymizmi yoki yo'qmi, xoshiya, markazda chuqurlik, fazoni hosil qiladi va butun tekislik qizg'ish ritmik bo'lib qurilishi kerak. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, kompozitsiyaning vosita va qonunlardan birortasi ham alohida holda uyg'unlashgan asarni yaratmaydi. Chunki ularning hammasi o'zaro bir biriga bog'liq, bo'ysunuvchan va muvofiqlashgan bo'ladi.

3-mavzu. Dizayn metodologiyasi

(2 soat)

Dizayn — ingliz tilidan olingan bo'lib, shinam, yangi, chiroyli loyiha degan ma'noni anglatadi. Dizayner esa kuchli rassom, konstruktor. Buyum bilan tanishish ma'lum darajada unga baho berish bilan bog'liq. Baho berish funksional, estetik, sotsial-nufuzli bo'lishi mumkin. Buyumlar olamini loyihalash bilan shug'ullanadigan kishi o'zining pirovard maqsadida chiroyli buyum yaratishga xarakat qilar ekan, birinchi navbatda mazkur buyumning estetik qiymati nimadan iborat ekanligini bilish lozim. Buyumning tashqi formasi geometrik shakllar paralelepiped, prizma, silindr, konussimon. Ma'lumki, har qanday buyum uch o'lchovga ega bo'lib, bu o'lchovlar nisbatini biz hamisha his qilib turamiz. Shu

sababli buyumning hajmiga doir xarakteristikalari uning asosiy o'lvovlariga bog'liq bo'ladi.

Dizayn nazariyasi hozirgi kunda texnik estetika deb nomlanib, u o'z ichiga ijtimoiy, iqtisodiy, ergonomik masalalami oladi. Yaratilayotgan har qanday ob'yekt ma'lum vazifani (funktsiyani) bajarishga qaratilgan. Ob'yektning shakli, o'Ichami uning funksiyasiga shakl mazmuni va tashkiliy qiyofasiga mos kelishi kerak. Agar buyumning eni va balandligi chuqurligidan nihoyatda katta bo'lsa, bunday tuzilishi frontal, agar buyumning chuqurligi yuqorida aytilgan tartibda bo'lsa, u holda bunday tuzilishni fazoviy tuzilish deyiladi. Dizaynda kompozitsiya deganda ba'zan tugallangan ob'yektning xarakterlovchi sifat bahosi tushuniladi. Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Inson faoliyatining xususiyati ana shu talab va ehtiyoj tabiati bilan belgilanadi. Estetik faoliyatning asosiy xususiyatlari ham estetik ehtiyojlar bilan belgilanadi. Inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bo'ladi. Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma'naviy faoliyatining o'zagi bo'lib, uning barcha shakllari inson kuch-qudrati mohiyatining yorqin ifodasi bo'lib borgan sari estetik mazmun kasb etaveradi. Shunday qilib, estetik faoliyat inson faoliyati boshqa shakllarining «insoniylik» mezoniga aylanadi. Estetik faoliyat ilmiy ijodning ham estetik tomonini tashkil qiladi. Lekin estetik omillar ilmiy ijodga tarkiban xos bo'lib, unga yordamchi omil vazifasini o'taydi. Juda ko'p ilmiy tadqiqotlar va atoqli olimlar guvohlik berishlaricha, olimning salohiyati, ijodiy mehnati natijalari va samaradorligi uning estetik madaniyati darajasiga bevosita bog'liq ekan. Estetik faoliyat ilmiy izlanishlarning hamma bosqichlarida ilmiy muammolarning qo'yilishi, ularning yechimi, olingan ilmiy natijalarni baholash jarayonida katta ahamiyat kasb etadi.

San'at, avvalo, ma'naviy ishlab chiqarishning turi bo'lib, u estetik ongning bilish sohasiga kiradi. U san'atning tub mohiyatini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda o'quvchining dizaynga qiziqishini, ya'ni dizaynerlik tafakkurini oilada, maktabgacha talim muassasalarida shakllantirib, umumiy orta talim maktablarida rivojlantirib, kasb-hunar hamda oliy ta'limda yanada takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Estetik tarbiya inson ongli faoliyatidagi eng qadimiy mashg'ulotlardan biri. Zero, insonlar hamisha ish qurollarining qulay, turmush tarzining go'zal bo'lishiga e'tibor qaratib kelganlar. Qadimgi yunon faylasuflarining asarlari, shu jumladan, O'zbekiston hududidan arxeologik qazishmalar chogida topilgan tarixiy manbalar bunga misol bola oladi. Shuning uchun ham estetik tarbiya har doim tarbiyaviy tadbirlarning eng asosiyalaridan bo'lganligini e'tirof etish mumkin. Zero, dizayn tarbiyasi o'quvchi-yoshlarning ilmiy dunyoqarashni shakllanishida alohida e'tiborga molik. O'quvchilarda dizaynerlik dunyoqarashni shakllantirishda turli omillarning ta'siri ham turlicha. O'quvchilarning dizaynerlik

